

## NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR DIQQAT BUZILISHIDA OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR TIZIMI

Jizzax davlat pedagogika institut,maxsus pedagogika kafedrasi o'qituvchisi Djurayeva Sohiba Barat qizi  
Defektologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi,  
Ashurova O'g'iloy Ilhom qizi

**Anotatsiya:**Nutq insonning murakkab oliy psixik funksiyalaridan biridir. Nutq harakatlari murakkab a'zolar tizimi orqali amalga oshiriladi, bunda bosh miya faoliyati va bilish jarayonlari, xususan diqqat asosiy rolni o'ynaydi. Ushbu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda diqqat buzilishlarini to'g'irlash, nuqson turi va darajasiga mos ravishda bola bilan olib boriladigan korreksion ishlar tizimi batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar, diqqat, buzilish, korreksiya, ta'lim-tarbiya

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit qizlarini XXI asr talabalariga to'liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib tarbiylash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Jumladan nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion–pedagogik va tarbiyaviy ishlar olib borishga katta e'tibor berilmoqda. Bolalardagi nutq kamchiliklarini o'z vaqtida oldini olish nerv psixik kasalliklarni oldini olishdan boshlanadi. Nutqning faol ishtiroki tufayli inson tevarak-atrof, borliq haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga nutq bolaning rivojlanishida, uning ta'lim tarbiya olishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bolalarda eng ko'p uchraydigan nuqsonlardan biri nutqning to'liq rivojlanmasligidir. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda bilish faoliyatini rivojlantirish, nuqsonni korreksiyalashda yetakchi ro'l o'ynaydi. Xususan bola diqqatini rivojlantirish korreksion mashg'ulotlarning samaradorligini ta'minlaydi. Maktabda o'qish, bilimlarini egallash jarayoni – bolalarda o'quv faoliyatida yuzaga keladigan qiziqishlari beixtiyor diqqatning o'sishiga yordam beradi. Bu bolaga berilgan materialning yorqinligi, uning ko'rgazmaliligi va aniqligi, bola hissiy sohasiga bo'lgan ta'siriga bog'liqdir. Nutqning to'liq rivojlanmaganligini R.E. Levina uch daraja bilan belgilaydi: nutqiy aloqa vositalarining umuman yo'q bo'lishidan to fonetik-fonematik va leksik-grammatik jihatdan rivojlanmaganlik elementlariga ega bo'lgan mukammal nutq buzilishigacha.

Nutq to'liq rivojlanmaganligining birinchi darajasi nutqning bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqsiz bolalardir. 4-6 yoshdagi bunday bolalarning lug'at boyligi kambag'al, noaniq bo'ladi. Nutqiy tovushga taqlid qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo'ladi. Narsa va hodisalarni farq qilmagan holda ifodalash, so'zlarning ko'p ma'noga ega bo'lishi xarakterli xususiyat hisoblanadi: «tu-tu»-mashina, parovoz, samalyot, qayiq; «taq»-yiqildi, tushurib yubordi, sindirdi, buzdi. Bu bolalarning passiv lug'ati aktiv lug'atiga

nisbatan ancha boyroq lekin nutqni tushunish pasaygan bo'ladi, ular ko'p so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar. Tovushlar talaffuzida turg'unlik bo'lmaydi, tovushlarni bir-biri bilan almashtiriladi, fonematik o'quvi buzilgan bo'ladi. Nutq to'liq rivojlanmaganligining bu darajasiga ega bo'lgan bolalar uchun tovushlar analizi bo'yicha berilgan topshiriqlar tushunarsiz bo'ladi.

Nutq to'liq rivojlanmaganligining ikkinchi darajasi - dastlabki keng qo'llanadigan odatdagi nutqning bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bolalar oddiy jumladan foydalana biladilar, ma'lum lug'at boyligiga ega bo'ladi. Ular narsalar, hodisalar, alohida belgilar nomini ajrata oladilar. Lekin bunday bolalarda nutqning qo'pol darajada rivojlanmaganligi yaqqol ifodalangan bo'ladi. Ular ikki-uch so'zdan iborat gaplardan foydalanib, lug'at boyligi shu yoshga mos keladigan normadan kam bo'lishi kuzatiladi. Umumlashtiruvchi so'zlarni (mebel, kiyim, sabzavotlar, mevalar va boshqalar) bilmaslik kuzatiladi. Harakat belgisini bildiruvchi so'zlardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi, predmet nomini va boshqa belgilarini bilmaydilar. Kelishik formalarini chalkashtiradilar, fe'l sonini ot soniga moslashtira olmaydilar. Nutqning fonetik tomoni shu yoshga mos keluvchi normadan orqada qoladi. Shunday kamchilikka ega bo'lgan bolalar bo'g'inlar o'rnini almashtiradilar, undoshlar ketma-ket kelganda tovushni qisqartiradilar.

Nutq to'liq rivojlanmaganligining uchinchi darajasi - nutqda leksik-grammatik va fonetik-fonematik jihatdan rivojlanmaganlik elementlari kuzatiladi. Bolalar nutqga ega bo'lgan holda kishilar bilan aloqa bog'lay oladilar, lekin buni ota-ona (tarbiyachi) ishtirokida, ularning muayyan tushuntirishlari yordamida bajaradilar. Bunday bolalar uchun erkin holda aloqada bo'lish juda qiyin. Tovushlarni talaffuz qilishda ularni bir-biridan ajrata olmaslik, tovushlar guruhini artikulatsiya jihatidan osonroq bo'lgan tovushlarga almashtirish ba'zi hollarda tovushlarni buzib talaffuz qilish bu bolalar uchun xarakterlidir. Lug'at ham normadan orqada qolgan bo'ladi, lug'at boyligi analizida leksik holatlarning o'ziga xosligi ko'rinadi. Tekshirishda gaplarni, gaplarda so'zlarni oxirigacha gapirmaslik kabi turg'un grammatik xatolar kuzatiladi. Ko'pchilik hollarda ular qo'shimcha qo'shilish bilan so'z ma'nosining o'zgarishini tushunib etmaydilar. Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar ish jarayonida faoliyat tempi barqarorligi pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, bunday bolalar diqqatni nutq va amaliy harakatlarga taqsimlashi qiyin, amaliy jihatdan bajarib bo'lmaydigan vazifa hisoblanadi. Bunday bolalarda normal nutq rivojlanishiga ega bolalardan farqli aniqlovchi va ta'kidlovchi xarakterdagi nutq reaksiyalari ustunlik qiladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar tomonidan barcha ish jarayonida diqqat qilishda xatolar kuzatiladi va bu xatolarni bola mustaqil tarzda payqamaydi va bartaraf etolmaydi. Xatolar xarakteri vaqt jihatidan taqsimlanishi normadan sifat jihatdan tafovutlanadi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda ixtiyoriy diqqat chalg'uvchan bo'lib, normal nutqi rivojlangan bolalar vazifani qanchalik to'g'ri bajarayotganliklarini eksperimentatorning reaksiyalariga qarab bilishga harakat qilsalar, nutq patologiyasiga ega bolalarning diqqati esa "derazaga qarash" yoki "vazifaga taaaluqli bo'lmagan ishlar qilish" bilan chalg'iydi. Og'ir nutq buzilishlari bor bolalarda ixtiyoriy diqqatning past darajasi ularda faoliyat tuzulishining buzilishi yoki uning shakllanmasligiga olib keladi. Nutqi

rivojlanmagan bolalar uchun diqqat-e'tiborning qator xususiyatlari xarakterli: o'zgaruvchanlik, erkin e'tiborning past darajadagi ko'rsatkichlari, o'z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar. Bolalar masalani hal qilishda turli usul va vositalarni qidirib, shart-sharoit tahlilida qiyinlik bilan diqqat-e'tiborini to'playdilar. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar diqqat buzilishlarini korreksiyalashda lug'at boyligini oshiruvchi usullarga yuzlanamiz. "Uycha metodikasi" bu metodika bolaning ixtiyoriylik sferasini rivojlantirish uchun mo'ljallangan bo'lib, bolani maktabga tayyorgarligini (5-10 yoshli) aniqlash jarayonida qo'llaniladi. Bajarilish texnikasi bunda uycha tasvirlangan rasmga qarab, xuddi shunga o'xshash uycha rasmini chizishdan iborat. Uychaning alohida detallari yozuv harflari elementlardan tashkil topgan. Topshiriq quyidagilarni aniqlashga imkonini beradi: Bolaning namunaga qarab orientirovka va nusxa ola bilishini aniqlash. Bu malakalar ixtiyoriy diqqat, fazoviy idrok, sensonomotorika koordinatsiyasi va qo'lning nozik motorikasining muayyan rivojlanish darajasini taqozo qiladi. Bola oldiga "uycha" rasmi chizilgan rasm qo'yiladi va logoped: "shoshilmasdan, diqqat bilan xuddi namunadagidek rasm chiziladi. Agar biror narsani chizmasang yoki noto'g'ri chizsang, rasmni o'chirmasdan uning tepasiga yoki yoniga boshqatdan to'g'irlab chiz. Topshiriq tushunarlimi? Unda ishni boshlashing mumkin," deb ko'rsatma beradi. So'ngra bolaga oq qog'oz va qora qalam beriladi.

Nutqning rivojlanishi tafakkur rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, diqqatni rivojlantirish bola nutqidagi barcha nutq komponentlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu komponentlarni rivojlanishi bolaning nerv sistemasi o'sishiga, ta'lim-tarbiyaning to'g'ri olib borilishiga bog'liqdir. Har qanday nutq nuqsonlarida korreksion ishlarni olib borilishi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda nutq faoliyatini faollashtirish uchun xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Jo'rayeva, S. (2021). INTELEKTIDA NUQSONI BO'LGAN KICHIK MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR SAMARADORLIGI. Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya jurnali, 1 (3). <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3830>
2. Djurayeva Sokhiba Barat qizi, Norkulova Soraxon Gulmurod qizi Inclusive Education as a Factor for Improving the Quality of Life of Children with Disabilities <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/983/916>
3. Djo'rayeva, S. (2022). DISLEKSIYA NUTQ NUQSONIGA EGA BO'LGAN BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA O'QISHNI TUSHUNISH BO'YICHA KO'RSATMALAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5063>
4. Djo'rayeva, S. (2022). BOLALARDA NUTQ TEMPINING BUZILISHI VA UNI BARTARAF ETISHNING KORREKSION USULLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). Извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4950>

5. Yunusov, M. (2021). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/711>
6. Yunusov, M. (2021). ESHITISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1)*. извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1190>
7. Yunusov, M. (2021). MAKTABGACHA YOSHDAGI ESHITISH QOBILIYATI CHEKLANGAN BOLALAR TALAFFUZINI KORREKSIYALASHDA YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4599>
8. Yunusov, M. (2021). ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING KOGNITIV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT VA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(3)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4062>
9. Yunusov, M. (2021). DAUN BOLALAR NUTQINI KORREKSIYALASHNING ZAMONAVIY USULLARI. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Yunusov, M. (2021). ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI O'QITISH VA TARBIYALASHNING INNOVATSION KO'RGAZMALI USULLARI. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Yunusov, M. (2021). ESHITISH QOBILIYATI CHEKLANGAN BOLALARDA O'QUV FAOLIYATI UCHUN MOTIVATSIYANI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH. *Scienceweb academic papers collection*.
12. Yunusov, M. (2021). KAR BOLALARNI O'QITISHDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Scienceweb academic papers collection*.
13. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB -INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(2)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2631>
14. Haqberdiyev, J. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI AQLIY RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BOR BO'LGAN BOLALARNING O'YINLARINI TASHKIL ETISH BO'YICHA KORREKSION ISHLARINING XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4)*. извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4748>
15. Haqberdiyev, J. (2022). KOKLEAR IMPLANTAT BOLALARDA OG'ZAKI NUTQNI IDROK ETISHNI O'RGANISH VA RIVOJLANTIRISHDA

- ZAMONAVIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK USULLAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4747>
16. Haqberdiyev, J. (2021). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЗАДЕРЖКУ РЕЧИ И ПУТИ ЕЕ УСТРАНЕНИЯ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1204>
17. Haqberdiyev, J. (2021). KOXLEAR IMPLANTATSIYADAN KEYIN BOLANI REABILITATSIYA QILISH MASALALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/713>
18. Axrorova, S. (2021). РАННИЙ ДЕТСКИЙ АУТИЗМ И РАБОТА ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1788>
19. Axrorova, S. (2021). ИГРА КАК СРЕДСТВО КОРРЕКЦИИ АУТИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ТЕРАПИИ ИГРОЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>
20. Axrorova, S. (2021). AUTIZM SINDROMIGA CHALINGAN BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARNI OLDINI OLISH VA KORREKSIYALASH. *Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari*, 1(3). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4061>
21. Axrorova, S. (2021). F 84 BU QANDAY TASHXIS? MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari*, (2). Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2907>
22. Axrorova, S. (2019). Медико-педагогические и психологические основы подготовки детей с синдромом аутизма к социальной жизни. Scienceweb academic papers collection.
23. Haqberdiyev J. МАКТАБГАЧА YOSHDAGI KOXLEAR IMPLANTANT BOLALARNI TASVIRIY FAOLIYAT VOSITASIDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference [https://zenodo.org/record/5855156#.YfuJ\\_99BzIU](https://zenodo.org/record/5855156#.YfuJ_99BzIU)
24. Islomova, O. (2021). UMUMTA'LIM MAKTABLARI QOSHIDAGI LOGOPEDIYA SHAHOVCHALARI ISHINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA PEDAGOGIK TAVSIYALAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2619>
25. Islomova, O. (2020). UMUMIY TIPDAGI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALAR NUTQINI TUZATISHDA SIFATLI LOGOPEDIK XIZMAT. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).

26. Normatova, M. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA VA KORREKSIYALASHDA LOGOPEDIK YONDOSHUVLAR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5111>
27. Normatova, M. (2021). THE IMPORTANCE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES TO CORRECT THE SPEECH OF PRESCHOOLERS. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/714>
28. Malikaxon Qodirova, [МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda [Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
29. Malikaxon Qodirova, [МАШҒУЛОТЛАР ВА УЛАРНИНГ БОЛА ИДРОКИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda [pedagogika va psixologiya fanlari](#)
30. Malikaxon Qodirova, [O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI VA O'SMIR XULQ-ATVORINING O'ZIGA HOSLIGI](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda [Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
31. Malikaxon Qodirova, [AGRESSIYANING NAZARIY ASOSLARI](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda [Pedagogika va psixologiya fanlari](#)
32. Malikaxon Qodirova, [ВОСПРИЯТИЕ " Я " У ДЕТЕЙ](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2020): [Journal of Pedagogy and psychology in modern education](#)
33. Malikaxon Qodirova, [ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС](#), Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2020): [Journal of Pedagogy and psychology in modern education](#)